HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

IMOM TERMIZIY HAQIDA ULAMOLARNING MAQTOVLARI

Temirov Ibrohimjon Qobiljonovich

Buxoro Davlat unversiteti mustaqil tadqiqotchisi, Mir Arab oliy madrasa o‘qituvchisi.

Tel: +998973716091

E-mail: ibrohim9107@gmail.com

ПОХВАЛЫ УЧЁНЫХ В АДРЕС ИМАМА АТ-ТЕРМИЗИ

Темиров Ибрагимджон Кабильонович

независимый исследователь Бухарского государственного университета, Преподаватель в Высшей медресе Мир Араб

SCHOLARS’ PRAISES OF IMAM AL-TIRMIDHI

Temirov Ibrahimjon Kabiljonovich

is an independent researcher at Bukhara State University, Teacher at Mir Arab Higher Madrasah

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk muhaddis va hadis ilmining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning hayoti, ilmiy faoliyati va hadis ilmidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Hokim, Zahabiy, Ibn Hibbon va boshqa mashhur ulamolarning Imom Termiziy haqidagi fikrlari keltirilib, uning ilm, hifz, taqvo va zuhddagi yuksak maqomi ochib berilgan. Maqolada Imom Termiziyning hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi, ayniqsa hadislarni tasniflash va baholashdagi xizmatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Imom Termiziy, Abu Iso at-Termiziy, hadis ilmi, muhaddis, Sunan at-Termiziy, Al-Jome’, hadis tasnifi, sahih hadis, hasan hadis, zaif hadis, Movarounnahr, Imom Buxoriy, hadis rivoyati, islom ilmlari, muhaddislar.

Аннотация. В данной статье освещаются жизнь, научная деятельность и место в науке хадисов великого мухаддиса и одного из крупнейших представителей хадисоведения — имама Абу Исы Мухаммада ибн Исы ат-Термизи. Также приводятся мнения известных исламских учёных, таких как Имам аль-Бухари, Имам аль-Хаким, аз-Захаби, Ибн Хиббан и других, об Имаме ат-Термизи, раскрывается его высокий статус в знаниях, сохранении хадисов, богобоязненности и аскетизме. В статье анализируется вклад Имама ат-Термизи в развитие науки хадисов, особенно его заслуги в классификации и оценке хадисов.

Ключевые слова: Имам ат-Термизи, Абу Иса ат-Термизи, наука хадисов, мухаддис, «Сунан ат-Термизи», «Аль-Джами‘», классификация хадисов, достоверный хадис (сахих), хороший хадис (хасан), слабый хадис (даиф), Мавераннахр, Имам аль-Бухари, передача хадисов, исламские науки, мухаддисы.

Annotation: This article examines the life, scholarly activities, and contribution to the science of Hadith of Imam Abu Isa Muhammad ibn Isa al-Tirmidhi, one of the greatest muhaddiths and prominent representatives of Hadith scholarship. It also presents the views of renowned scholars such

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

as Imam al-Bukhari, Imam al-Hakim, al-Dhahabi, Ibn Hibban, and others regarding Imam al-Tirmidhi, highlighting his distinguished status in knowledge, memorization of Hadith, piety, and asceticism. The article analyzes Imam al-Tirmidhi's contribution to the development of Hadith studies, particularly his services in the classification and evaluation of Hadiths.

Key words: Imam al-Tirmidhi, Abu Isa al-Tirmidhi, Hadith studies, muhaddith, *Sunan al-Tirmidhi*, *Al-Jami'*, Hadith classification, Sahih Hadith, Hasan Hadith, Da'if Hadith, Mawarannahr (Transoxiana), Imam al-Bukhari, Hadith transmission, Islamic sciences, Hadith scholars.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Yurtimiz azal-azaldan barcha soharalarda allomalar yurti bo'lgan. Masalan, birgina hadis sohasini olsak mashhur e'tirof etilga sihohi sitta (oltita sahih to'plamlar) kitoblarining yarmi Movarounnahr o'lkasiga to'g'ri keladi. Ular Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abdulloh ibn Abdurrahmon ad-Dorimiy va ularning shogirdi Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziylardir. Imom Termiziyning o'ziga to'xtaladigan bo'lsak o'ndan ziyod asarlar sohibi bo'lib, ularning ichida shoh asari bo'lmish "Sunani Termiziy" alohida ajralib turadi. Alloma ushbu to'plamlarida oldingi o'tgan ustozlaridan uslublarini olib, hadislarni saralab chiqqani uchun ham juda ko'p ulamolar maqtovlar aytishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ibn al-Asir "Jome' al usul" kitoblarida Imom Termiziyning to'liq ismini Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zohhak al-Bug'iy as-Sulamiy at-Termiziy deb keltiradi. "Abu Iso" degan kunyasi bilan mashhur bo'lgan. Termiziy deyilishining sababi Movarounnahrdagi ma'lum va mashhur shaharga nisbatan aytiladi. Bug'iy deyilishining sababi o'zi tug'ilgan Termiz qishloqlaridan biriga nisbatan berilgan[1].

Tug'ilishi va vafoti: hijriy 209/824-yili tug'ilgan va 279/892-yilda dushanba kuni, Rajab oyining 13-kuni Termizda vafot etgan. Ba'zilar ismlaridan keyin "zarir" deb ham qo'shib qo'yadi. Zarir degani ko'zi ojiz degan ma'noni anglatadi. Chunki umrlarining oxirida ko'zlari ko'rmay qolgan[2].

Ulamolarning maqtovlari: Imom Hokim: "Men Umar ibn Allakdan eshitdim. Imom Buxoriy vafot etdi. Endi Xurosonda ilmda, hifzda, taqvoda va zuhdda Abu Isoga o'xshashi qolmadi, Juda ko'p yig'laganidan ko'zlari ojiz bo'lib qoldi"[3].

Imom Buxoriy ustozi bo'lsalar ham u kishiga qarata: "Sen mendan foyda olganingdan ko'ra men sendan ko'proq foyda oldim"– degan.

Abul Fido "al-Muxtasar" kitobida: "Imom, Hofiz, ko'zi ojiz, hadis ilmida ergashilinadigan, mashhur hadis olimlaridan edi".

Samoniy, "Imom Termiziy hech qanday raqobatsiz zamonasining imomi edi. Zehn o'tkirligida, yodlash qobiliyati kuchliligida zarbul masal edi"[4] – deydi.

Imom Buxoriy ustozi bo'lsalar ham u kishiga qarata: "Sen mendan foyda olganingdan ko'ra men sendan ko'proq foyda oldim"– degan.[5]

[1] Ibn al-Asir. Jome' al-usul. –J:1. –Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya,1969. – B.114

[2] Habiburrohman al-Xoyrobodiy. Al-Miskush shaziy sharhu Jome' at-Termiziy. – Devband: Maktabat al- Ashrafiyya, 2017. – B. 31

[3] Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad az-Zahabiy. Tazkirot al-huffaz. – J:2. – Bayrut: Doru-l-kutub al-ilmiyya, 1998.– B. 187.

[4]Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur at-Tamimiy as-Sam'oniy. Al-Anso– B. – J:2. – Bayrut: Dor al-jinon, 1988.– B. 262.

[5] Nuriddin Itr. Al-Imam Termiziy val muvozanatu bayna Jameihi va baynas-sahihayn. – Qohira: Lajnatut ta'lif vat tarjima va nashr, 1970. – B.18.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Abu Said Idrisiy r.a. aytadi: “Muhammad ibn Iso ibn Savra Termiziy, Hofiz, Zarir (ko‘zi ojiz) Hadis ilmida barcha iqtido qiladigan buyuk imomlardan biridir. U “Al jome”, “Tavorix” va “Ilal” kabi asarlar yozgan yetuk olim bo‘lib, uning hadis yod olishi el orasida zarbulmasal bo‘lgandir”.

Ibn Hibbon (vaf. 965 y.) aytadi: “U hadislarni to‘plab, asar yozib, ularni yod olib, muhokama qilgan kishilardandir”.

Abu Ya’lo Xalil ibn Abdulloh Xaliliy Qazviniy r.a. (vaf. 1054 y.) bunday deydi: “Muhammad ibn Iso ibn Savra ishonchli roviy bo‘lib, u “as-Sunan” nomli hadis asarini yozgan va unda jarh va ta’dil (hadis roviylarning adolatli va adolatsizligi)ni aytib o‘tgan. Imom Termiziy r.a.dan Marvlik Abu Mahbub va Ajlo kabi roviylar hadis rivoyat qilganlar. Imom Termiziy o‘zining omonatdor va yuksak bilim sohibi ekani bilan mashhur bo‘lgan”.

Isardiy aytadi: “Abu Iso yuksak axloqiy fazilatlar sohibi edi.Uning asari esa, besh ishonchli hadis to‘plamlaridan biri bo‘lib, olimlar, faqihlar, zabardast hadis hofizlaridan iborat munaqqidlar, fazilat sohiblari “Sunan”ni sahihlariga ittifoq qilganlar”.

Shamsiddin Zahabiy (1274 -1347) aytadi: “Imom Termiziy bu ish (hadis ilmi)ning imomlaridan bo‘lgan”. U yana shunday deydi: “Imom Termiziy hadis ilmida o‘z davrining peshqadam olimlaridan edi. U “Al-Jome’” asarining sohibi bo‘lib, buyuk hofiz, ishonchli roviylardandir”.

Olimning bu darajaga yetishishlariga III asr, hadis ilmi cho‘qqiga chiqqan asrda yashagani sabab bo‘lgan. Chunki bu asr sunnatni tadvin bo‘lishi bilan boshlandi. Hadis istilohlari belgilandi, sahih va boshqalarga ajratildi. Bunga dalil Imom Buxoriyning shayxi Aliy ibn Madiniyning qo‘lida hadislar sahih, hasan va zaifga bo‘linishi yaqqol ko‘ringan. Bu vaqtdan oldinroq esa istilohlar ommalashmagan edi. Chunki, u kishi eng ko‘p hadislarga sahih va hasan sifatlarini bergan olimdir[6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Demak biz yoshlarga dunyo olimlari e’tirof etgan yetuk imom Abu Iso Termiziyning asarlarini o‘rganib, hayotga tatbiq qilishimiz va o‘zimizda keyingi avlodga bu ilmiy meros zanjiri uzmay topshirishimiz lozim bo‘ladi. Shunda vatandoshlik haqqini ado qilgan bo‘ladi deyish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Aminov H., Ismoilov M., Abiyev H., Abdullayev B. Sunani Termiziy sharhi. – Toshkent: Irfon nashr, 2021. – 385 b.
2. Tarix fanlari doktori U. Uvatov. IX asr Movarounnahr va Huroson hadisshunoslik tarixidan (Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Termiziy). Doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent: TIU, 2001. – 314 b.
3. PhD J. Cho‘tmatov. VII–IX asrlar Termiz ma’naviy muhiti tarixi: an’analar, tadrij va yangilanish. Dissertatsiya avtoreferati. – T.: SamDU, 2020. – 222 b.
4. Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad az-Zahabiy. Tazkirot al-huffaz. – J:2. – Bayrut: Doru-l-kutub al-ilmiyya, 1998
5. Ibn al-Asir. Jome’ al-usul. –J:1. –Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya,1969.

[6] Nuriddin Itr. Al-Imam Termiziy val muvozanatu bayna Jameihi va baynas sahihayn. – Qohira: Lajnat at-ta’lif vat tarjima van nashr, 1970. – B.20.